

DAVLAT ICHKI VA TASHQI QARZLARINI SAMARALI BOSHQARISH ZARURIYATI

Eshonqulov Ilhomjon Ziyadullayevich ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:06.05.2025

Revised: 07.05.2025

Accepted:08.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

qarz, davlat qarzi,
davlat tashqi qarzi, davlat
ichki qarzi, davlat krediti,
xalqaro moliya
institutlari. byudjet-soliq
siyosati.

Ushbu maqolada davlat ichki va tashqi qarzlarini samarali boshqarish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KIRISH. Davlat qarzi nazariyasi birinchi navbatda qarzning iqtisodiy oqibatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Biz ushbu oqibatlarni ikki nuqtayi nazardan ko'rib o'tamiz. Keng tarqalgan nuqtayi nazarlarga ko'ra, qarz yomon narsa, iqtisodiyotga og'ir yuk. Boshqa bir qarashlarga ko'ra, davlat soliqlarni oshiradimi yoki qarzga pul oladimi, iqtisodiyotga "bari bir", "issiq sovug'i" yo'q. Bunday nuqtayi nazar rikardocha ekvivalentlik deb nomlanadi.

Bu nuqtayi nazarlar o'rtasiga asosiy chegara qo'yadigan ikki g'oya mavjud. Birinchi g'oya – qarz yuki to'g'risida. Qarz yuki unga xizmat ko'rsatish uchun davlatga soliqlar to'lashi lozim bo'lgan kishilarning turmush darajasini pasaytiradi. Birovlar davlatga qarz berganlari sababli boshqa birovlar o'z huzur-halovatidan, farovonligidan mahrum bo'ladi. Ikkinchi g'oya – davlat xususiy qarz oluvchilarni kredit bozoridan siqib chiqaradi (qisqa

qilib uni fiskal siqib chiqarish deb ataymiz). Qarz – bu yomon deyilganda, e'tibor birinchi navbatda uning fiskal surib chiqarishiga qaratiladi. Qarz olish-berish iqtisodiyot uchun “bari bir” deyilganda, qarz kelajak avlodga yuk bo'lmasligi va fiskal siqib chiqarish yuz bermasligi nazarda tutiladi.

Davlat tomonidan olinayotgan qarzlar bu davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini moliya bozorlaridan qarz olish yo'li bilan jalb qilishdagi davlat faoliyatidir. Davlat olayotgan qarzlari davlat nomidan qarz olishni amalga oshirish vakolatini olgan davlat organlarining qarz majburiyatlari hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, ular davlatning qarzdorlik qimmatli qog'ozlari bo'lib, bozorda erkin aylanishi mumkin bo'ladi. Davlat qarzdorliklari ikkita vazifani bajaradi: davlat g'aznasiga pul mablag'larini jalb etish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish.

Davlatning qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Amerikalik iqtisodchi olim, Didvud Gaygerning fikricha, “qarz hisobiga taqchillikni moliyalashtirish iqtisodiyotga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi: pul massasini qisqartiradi va foiz stavkasi darajasini ko'taradi, shunga bog'liq holda bir tomondan xususiy investitsiyalar darajasini pasayishini keltirib chiqaradi (siqib chiqarish omili), tashqi savdo balansini yomonlashtiradi, boshqa tomondan inflatsiya bosimini pasaytiradi, milliy valyuta kursini ko'taradi, saqlab qo'yilgan mablag'larni ishlatadi”.

Jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa subektlari oldida vujudga kelgan hukumatning qarziy majburiyatlariga davlat qarzi deyiladi. Joylashtirilish joyiga qarab davlat qarzlari ikkiga bo'linadi:

1. Davlat ichki qarzlari.
2. Davlat tashqi qarzlari.

Davlat tomonidan ichki mablag'larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlarining yig'indisiga davlat ichki qarzlari deyiladi. Davlatning ichki qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning o'z milliy valutasida ifodalangan qarz majburiyatlari paydo bo'ladi.

Davlat tashqi qarzlarini deyilganda davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlarining yig'indisi tushuniladi. Davlatning tashqi qarzlarini olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarini qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning xorijiy valutada ifodalangan qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Davlatning qarzlarini ko'paygan hollarda davlat budjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida davlat qarz oluvchi sifatida davlat qarzlarini joylashtirish jarayonini amalga oshiradi. Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, davlat zayomlarini chiqarish va sotish yo'li bilan banklarning, aholining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga sarflaydi. Davlat o'z qarzidan voz kechishi ham mumkin.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. Davlat qarzlarini va uning foizlarini qoplash manbalari sifatida byudjet mablag'lari qo'llaniladi. Davlat krediti milliy boylikning va yalpi ichki mahsulotning qiymatining ikkilamchi taqsimlanishini ta'minlaydi.

Davlat krediti davlat hokimiyati organlari ixtiyoriga kelib tushadi va ularda qo'shimcha moliyaviy resurslarga aylanadi. Bu mablag'lar byudjet defitsitini qoplashga yo'naltiriladi. Davlat kreditining mavjud bo'lish imkoniyati yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini shakllantirish va vaqtincha ishlatishning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Davlat krediti ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Davlat xarajatlarining asosiy ulushi milliy valutada amalga oshiriladi. Shuning uchun ichki davlat krediti rivojlanishda ustunlikka ega bo'ladi. Davlat kreditini moliyalash davlat qarzining shakllanishiga olib keladi. Mablag' oluvchi mamlakatlar uchun xalqaro davlat krediti qayta ishlab chiqarishni kengaytirish hisoblanadi.

Umumdavlat ssuda fond mablag'larini qarzga olish – davlat kredit muassasasi bevosita kredit resurslarining bir qismini davlat xarajatlarini qoplashga beradi. Bu inflatsiyaga olib keladi.

Xazina ssudalari – davlat hokimiyati organlaridan byudjet mablag'lari hisobiga muddatlilik, baholilik va qaytarish shartlari asosida korxona va tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

Xalqaro davlat krediti – qarz beruvchi sifatida jahon moliya bozorida davlat qatnashadi. Davlatning tashqi qarzlarini pul va tovar shaklida bo'ladi. Ular o'rta muddatli va uzoq

muddatli bo'ladi.

Davlat tomonidan ichki va tashqi qarzlarini jalb qilish quyidagi maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish;
- davlat budjetining daromadlari bilan xarajatlari o'rtasida tushumlar vaqtga ko'ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan yillik ichki tafovutni (farqni) to'g'rilash;
- mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish;
- byudjet defitsitini moliyalashtirish;
- tabiiy ofat va boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash.

Davlat tomonidan ichki va tashqi qarz mablag'larini jalb qilishda qarz majburiyatlarining bir necha turlaridan foydalanish mumkin:

- qisqa, o'rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari;
- byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik farqni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar;
- kreditlar (qisqa, o'rta va uzoq muddatli);
- davlat kafolatlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlar.

Davlatning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan "Davlatning qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishning asosiy shart-sharoitlari", "Davlatning qimmatli qog'ozlarini muomalada bo'lishi va xizmat ko'rsatishi to'g'risida"gi Nizom va boshqa meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar tartibga solish maqsadida o'zining DKMO portfeliga ega va uni boshqaradi.

Nima sababdan ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan, juda rivojlangan mamlakatlarning ham tashqi davlat qarzi bor. Ichki davlat qimmatli qog'ozlar bozori qanchalik zaif bo'lsa, davlatning defitsitni qoplashda tashqi manbalarga qaramligi shu qadar yuqori bo'ladi. Tashqi kreditlarning valutasida chet mamlakatniki bo'lgani sababli shakllanayotgan bozorli mamlakatda davlat qarzi rivojlangan bozorga ega mamlakatdagi davlat qarziga qaraganda ko'proq chet el valutasida ifoda etiladi. Shakllanayotgan bozorli mamlakatlar hukumatlari keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda aksariyat hollarda tashqi qarzlardan

foydalanadilar. Bunday qarzlar xalqaro iqtisodiy yordamga o'xshab ketadi. Rivojlangan mamlakatlar hukumatlari o'z valyuta rezervlarini to'ldirishda tashqi qarzdan foydalanadilar.

Amaliyotda ichki va tashqi qarzdan birini tanlash mumkin. Buning uchun ularning muqobili – davlat qimmatli qog'ozlarining likvid va yaxshi faoliyat ko'rsatadigan ichki bozori bo'lishi shart. Shunda quyidagi holatlarni ko'rib chiqish ma'noga ega bo'ladi: 1) qarzning iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri; 2) qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari; 3) qarzda yashiringan xatarlar.

Klassiklar ichki va tashqi qarz o'rtasida farq yo'qligini aytib o'tgan edilar, chunki har ikkalasi ham milliy boylikni kamaytiradi. Bu nuqtayi nazardan tanlovga o'rin yo'q. "Yangi iqtisodchilar"ning qarashlariga ko'ra, ichki va tashqi qarz o'rtasida aniq va muhim farqlar bor va klassiklarning tashqi qarzga nisbatan fikrlari to'g'ri. Tashqi qarz yuki kelajakka siljiydi, chunki qarz yuzaga kelgan paytda rezidentlar hech qanday zarar (sof holda) ko'rmaydilar. Yuk – bu norezidentlarga milliy daromaddan to'lanadigan foizlardir. Kelajak avlod bu foizlarning ekvivalentini ola bilmaydi. Qarzni uzish summasi ham norezidentlarga tegadi. Demak, mamlakatning shu summaga teng resurslari chet elga chiqib ketadi. Davlatning tashqi qarzi davlatning fiskal mas'uliyatsizligiga ishora bo'lishi mumkin.

Qarzning iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'sirini yana boshqa ikki nuqtayi nazardan – rikardocha va an'anaviy nuqtayi nazarlardan tahlil qilish mumkin. Rikardocha nuqtayi nazardan, real iqtisodiyotga defitsit ichki yoki tashqi qarzlar bilan qoplanadimi, buning ahamiyati yo'q. Defitsit uzoq muddatlar nazarda tutilganda investitsiyalarga va chet ellardagi joriy to'lovlarga ta'sir ko'rsatmaydi. An'anaviy nuqtayi nazardan, defitsit real iqtisodiyotga, ayniqsa, investitsiyalar va joriy to'lovlar balansiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jami jamg'armalarning hozirgi normalari holatida defitsit fiskal siqib chiqarishga aylanadi. Xususi jamg'armalarning hozirgi normalarida va ichki qarzlarning muammolari sabab bo'lib defitsit, shuningdek, tashqi savdo defitsiti bilan "hamkorlik" qiladi.

Standart paradigmada defitsitning ichki yoki tashqi qarzlar bilan qoplanishi o'ziga xos ahamiyatga ega. Ichki qarzlar yaxshi faoliyat ko'rsatadigan moliyaviy vositachilik tizimi bo'lishini talab qiladi.

Shunda bu qarzlar iqtisodiyotga inflatsiya bosimini va chet el pullari bilan bog'liq moliyaviy inqiroz xatarini pasaytiradi. Lekin moslanuvchan foiz stavkalarida davlat ichki qarzlarining o'sishi xususi ichki qarzlarning qisqarishini anglatadi. Agar almashuv kursi va foiz stavkalari davlat tomonidan tartibga solinadigan bo'lsa, moliyaviy siqib chiqarish "talon bo'yicha" kreditlashga aylanib ketishi mumkin.

Ichki qarzlar investitsiyalar defitsitiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarini yo'qotishga olib

kelishi mumkin. Tashqi qarzlarning afzalligi shundaki, ular bevosita fiskal siqib chiqarishga olib kelmaydi va iqtisodiyotga inflatsiya bosimini pasaytiradi. Buning ustiga ular mamlakatdagi fiskal va pul intizomini mustahkamlaydi, chunki davlatni qarz yukini kamaytirish maqsadlarida inflatsiyani avj oldirishga rag'batlardan mahrum etadi.

Keyingi omil – xarajatlar va byudjet uchun xatarlar. Defitsitni moliyalashtirish lozim, har qanday moliyalashtirish uchun pul kerak. Pulni bosib chiqarish, soliqlarni yig'ish va davlat kreditorlariga foizlarni birini tanlashda muhim zon bor – bu qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari. Agar tashqi qarz ichki qarzga qaraganda arzonga tushsa, boshqa hamma sharoitlar teng bo'lganda, chet eldan qarz olgan ma'qul. Nazariy bahslarda qarz yo'li bilan xususiy sektordan davlat sektoriga o'tkaziladigan resurslar va qarz beruvchilarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar o'zgarmas narxlarda olinadi. Valyuta zonalariga va o'z milliy valutasiga ega mamlakatlarga bo'lingan bu dunyoda ichki qarz milliy valutada, tashqi qarz chet el valutasida ifoda etiladi. Tashqi qarz bo'yicha foizlar va qarzni qaytarish puli chet el valutasida to'lanadi. Milliy valyuta almashuv kursining tebranishlariga nazariya darajasida e'tibor berilmasligi mumkin, ammo tashqi va ichki qarzdin birini tanlashda uni esdan chiqarib bo'lmaydi. Foizlar va to'lov summasini bir valutadan boshqasiga o'tkazish bilan davlat jami qarzga xizmat ko'rsatish qiymati va u bilan birga ortiqcha soliq yukining yanada og'irlashib ketishi xatariga ro'baro' keladi. Valyuta xatari deb ataladigan bu xatar ichki qarzlarning maqbulligiga yana bir dalil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. A.Shernaev, O.Kamolov. Davlat qarzlarni boshqarish. Darslik. T.: Iqtisodiyot MoliY. 2019.-314 b.
2. J.Ataniyazov, E.Almardanov, A.Abdullayev. Upravleniye gosudarstvennim dolgom. Uchebnoye posobiye. T.: Iqtisodiyot-MoliY. 2019.-216 b.
3. B.Mamatov, Sh.Xamdammov, J.Tursunov. Davlat maqsadli va buydjetdan tashqari jamgarmalar. Darslik. T.: Iqtisodiyot-MoliY. 2019.-348 b.
4. N.Jiyanova. Upravleniye gosudarstvennimi finansami. Uchebnik. T.: Iqtisodiyot-MoliY. 2019.-446 s.
5. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
6. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next

Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

7. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya uchenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.

8. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.

9. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.

10. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

11. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

12. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

13. T.Malikov, O.Olimjonov. MoliY. Darslik. T.: Iqtisodiyot-MoliY. 2019.-969 b.

14. A. Burxanov Moliyaviy xavfsizlik. Ma'ruzalar matni – T.:TDIU, 2018 y.;

15. A.V. Vahobov, T.S. Malikov Darslik. – T: "Noshir", 2011.712 b.

16. Toshmatov SH. A. Upravleniye gosudarstvennim vneshnim dolgom / Toshmatov SH.A., Nurmatov B.E., Xamroxudjayev N.Y., Yusupov K.A.Tashkent: Chulpan, 2015. 144 s.